

Uzbekistan Airways Seulga parvozlari sonini oshirmoqda

2022 19 Aprel

Uzbekistan Airways Toshkent – Seul – Toshkent xalqaro yoʻnalishi boʻyicha aviaqatnovlar soni oshirilayotgani haqida xabar beradi. Ayni paytda aviaqatnovlar payshanba va yakshanba kunlari, 2022-yilning 3-maydan boshlab esa seshanba kunlari ham amalga oshiriladi.

Toshkent – Seul yoʻnalishi boʻyicha aviachipta narxi 3 882 986 soʻmdan (bagajsiz) va 4 564 639 soʻmdan (bagaj bilan), Toshkent – Seul – Toshkent yoʻnalishi boʻyicha esa 7 085 495 soʻmdan (bagajsiz) va 8 290 559 soʻmdan (bagaj bilan) boshlanadi.

Muhim: davlatga kirish uchun yoʻlovchilar PZR-testning salbiy natijasini (amal qilish muddati 48 soat) taqdim etishlari kerak.

Narxlar 19.04.2022 holatiga koʻra amal qiladi.

Aviachiptalarni www.uzairways.com rasmiy saytida, Uzbekistan Airways Sales filialida va aviakompaniyaning agentlaridan xarid qilish mumkin.